

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

4-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 4 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Maxmudov Mansurjon Abdug‘opporovich</i> TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O‘RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	12-17
<i>Qurbonov Xurshid Raupovich</i> O‘ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN “MEHNAT ARMIYACHILARI” VA ULARNING TA‘MINOTI	18-22
<i>Salayev Fazliddin Shamsiddin o‘g‘li</i> O‘ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI	23-28
<i>Abbasov Behzod Baxtiyorovich</i> FARG‘ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO‘JALIKLARDA IJTIMOYIY MUAMMOLAR VA KO‘CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI (1946-1965).....	29-35
<i>Mirzaliyev Ulug‘bek, Klichev Ulug‘bek</i> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR	36-39
<i>Tursunova Gavhar Begmuradovna</i> ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN MA‘MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI)	40-50
<i>Vaxobov Doston Abdumannob o‘g‘li</i> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG‘LIQNI SAQLASH XODIMLARINING G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSASI.....	51-54
<i>Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi</i> O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR (1991-2024 yy).....	55-59
<i>Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich</i> QUYI SIRDARYOBO‘YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI	60-64
<i>Yo‘ldosheva Gulbahor Nuriddinovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘RTA UMUMTA‘LIM MAKTABLARINING AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI (QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA).....	65-69
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI	70-75
<i>Narziyev Rustambek Xaydarovich</i> HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN YARATILGAN IMKONIYATLAR	76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O‘ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O‘RNI	88-92
<i>G‘ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O‘ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG‘BATLANTIRISHNING O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o‘g‘li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO‘LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug‘muradova Nodira Berdimuradovna</i> O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA‘SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO‘YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro‘zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA MODDIY VA MA‘NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo‘ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA‘SIRI MASALALARI	186-191

<i>Agzamходжаева Шахноза Саидматмабевна</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	286-292
<i>Wang Cong</i> RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION	293-300
<i>Лу Адук</i> К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	301-310
<i>Abdurashidova Zarina Turg'un qizi</i> FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI	311-315
<i>Axmatov Olimjon Odilovich</i> “KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI OLISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI”	316-322
<i>Xatamov To'liqin Tojiddinovich</i> KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI	323-329
<i>Kuchimova Shaxlo</i> VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI	330-337
<i>O'rinova Dilshoda Adhamovna</i> OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDA AYOLLAR JABRLANISHINI OLDINI OLISH BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI	338-347
<i>Geng Zhimin</i> RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT.....	348-351
<i>Xidirov Mexroj Qilich o'g'li</i> ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON BERUVCHI OMILLAR	352-357
<i>Тулаганов Элмурод</i> ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	358-367
<i>Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon</i> DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI	368-374
<i>Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li</i> JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY XAVFLILIGI	375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абророва Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELLEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOGBARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFAKT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI.....	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOYIY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463
13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

Received: 16 March 2025

Accepted: 5 April 2025

Published: 15 April 2025

Article / Original Paper

THE CONCEPT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN CRIMINAL LAW AND ITS SOCIAL DANGER

Abbosov Mirsulton Mirsharof ugli

Master's student of Tashkent state university of law

E-mail: abbosovmirsulton@gmail.com

Abstract. This article analyzes the concept of artificial intelligence, the evolution of its forms, and social risks. It discusses the role of artificial intelligence in criminal law. The issue of recognizing artificial intelligence as a subject of crime is examined, and the views, opinions, and reflections of scholars on artificial intelligence are analyzed and categorized. The article also presents thoughts on the inclusion of artificial intelligence in criminal-legal relations.

Keywords: artificial intelligence, social risks, crime, crime weapon, subject of crime, issues of accountability of artificial intelligence.

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOY XAVFLILIGI

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt tushunchasi, shakllanish evolyutsiyasi va ijtimoiy xavfliligi masalalari tahlil qilinadi. Sun'iy intellektning jinoyat qonunchiligidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Sun'iy intellektning jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish masalasi, sun'iy intellekt haqida olimlarning qarashlari, fikr va mulohazalari tahlil qilinib guruhlashtiriladi. Jinoyat-huquqiy munosabatlarga sun'iy intellektning kiritish masalalari haqida mulohazalar qilingan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ijtimoiy xavflilik, jinoyat, jinoyat quroli, jinoyat subyekti, sun'iy intellektning javobgarlik masalasi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N58>

Kirish. Asrlar davomida fan va texnologiyalarning rivojlanishi doimo ijobiy oqibat keltirib chiqaravermagan, ayrim ixtiro va texnikalar borki, ularni yaratish maqsadi ijobiy, biroq amalda aks ta'sir ko'rsatib, salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Masalan, shaxtalarda ishchilarga osonlik yaratish maqsadida dinamitning yaratilishi[11], arzon elektr energiya ishlab chiqarish maqsadida atom energetikasining rivojlanishi[12] va hokazolar. Albatta har bir ilmiy yutuq qaysidir ma'noda jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq normalariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Axloq va huquq nafaqat zamonaviy jamiyatda, balki tarixda ham bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Aksariyat huquqiy masalalar, ularning jamiyatda mavjud axloqiy munosabatlar bilan o'zaro aloqasi va talqinidan kelib chiqadi. Mazkur munosabatlarni belgilash, muvofiqlashtirish, tartibda solish davlatning vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlat hokimiyatining funksiyalari davlat hokimiyati subyektlari tomonidan bajariladigan muayyan harakatlar orqali amalga oshiriladi[5; 14–15-b]. Sun'iy intellektning paydo bo'lishi mazkur vazifani amalga oshirishni murakkablashtirishi bilan bir necha pog'ona yuqoriga ko'tardi.

Bunga sabab sifatida, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan tizimlarning murakkab vazifalarni hal qilishda tobora mustaqil bo'lib borayotganligi bilan bog'liq. Yuridik fanlar doktori S. Bozarovning fikricha, "sun'iy intellekt tizimlarning dunyoga potensial ta'sirini etika nuqtai-nazaridan baholash, odamlar uchun ularning ishini tushunish, oldindan ko'rish va nazorat qilish qobiliyatini kamaytirish masalalari yuzaga keltiradi, chunki sun'iy intellekt o'z tajribasidan o'rganadi va kelajakda ularning ishlab chiquvchilari hatto taxmin qilmagan harakatlarni amalga oshirishi mumkin"[1; 85-b]. Albatta bu masalani har tomonlama tartibga solish muhimdir. Davlat funksiyalaridan biri bo'lgan munosabatlarni tartibga solishda jinoiy-huquqiy munosabatlar alohida o'rin egallaydi. Jinoiy-huquqiy munosabatlarni belgilash, tartibga solish va muvofiqlashtirish ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlik, boshboshdoqlik va tartibsizlikni oldini olishga xizmat qiladi. Mamlakatimiz jinoyat-huquqiy doktrinasida hozirgi kunda aynan sun'iy intellektning jinoiy javobgarligi muammolarini o'rganishga oid maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Material va metodlar. Mazkur ilmiy izlanishda bilishning umum-ilmiy dialektik metodidan foydalanilgan. Bundan tashqari jinoiy-statistik, siyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va ilmiy bilishning boshqa usullaridan foydalaniladi. Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, taklif va tavsiyalar beriladi.

Muhokama va natijalar. Xalqaro normativ-huquqiy aktlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan. Mazkur qadriyatni muhofaza qilish uchun turli huquqiy munosabatlar o'rta qadriyatga chiqadi. Jumladan O'zbekiston jinoyat qonunchiligi vazifasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida belgilangan bo'lib, shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni respublika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir[9]. Mazkur vazifadan kelib chiqadigan bo'lsak, bugungi kundagi globallashtirish jarayonlari, texnika inqirozi jinoyat qonunchiligi muhofaza qiluvchi obyektlarga nisbatan tajovuzlarning yangicha ko'rinishlarini namoyon etadi. Bu esa jinoyat qonunchiligini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ijtimoiy xavfli qilmish, jinoyat oqibatida jabrlangan subyektlarga bevosita zarar keltiradi, xususan og'riq, azob-uqubat, hayotiy ko'rsatkichlarning pasayishi, ruhiy zo'riqish, shuningdek turli xil jismoniy va ruhiy oqibatlar keltirib chiqaradi. "Global Burden of Disease" tashkilotining tadqiqotlariga ishonadigan bo'lsak, har yili 400 000 kishi qotillik qurboni bo'ladi va qurbonlarning ko'pi 50 yoshdan kichiklarni tashkil etadi. Bu esa, terrorizm, qo'poruvchilik qurbonlarini qo'shib hisoblaganimizdan uch marta ko'p deganidir[13]. Strategik va xalqaro tadqiqotlar markazi (CSIS) va maxsus internetda himoya dasturlarini yaratuvchi kompaniya "McAfee" tomonidan kiberjinoyatlar o'sishini iqtisodiy omillarga bog'lab tadqiqot olib bormoqda. O'rganishlar natijasida aniqlanishicha, kiberjinoyatlar tufayli dunyo 1 trillion AQSh dollaridan ko'proq, boshqacha aytganda, butun dunyo yalpi ichki mahsulotining 1%ga teng miqdorda zarar ko'radi[14].

Bugungi kunning eng katta rezonans hosil qilgan ixtirosi, shubhasiz, sun'iy intellekt texnologiyalaridir. Z. Ismoilov sun'iy intellektni informatikaning alohida sohasi sifatida ko'radi va "inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi"[15] deydi. N. Abduqunduzova esa, "Qisqa qilib aytganda, sun'iy intellekt

muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funksiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi"[16] deydi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sun'iy intellektga ilk ta'rif Prezidentning 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarorida berildi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Unda, "sun'iy intellekt — insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui"[10] deyilgan. Amerika Qo'shma Shtatlarining "Sun'iy intellekt sohasi va boshqa maqsadlarda Milliy tashabbus yaratish to'g'risida"gi Billda sun'iy intellektga quyidagicha ta'rif berilgan, "Sun'iy intellekt – bu AQSh iqtisodiyoti va jamiyatining har bir sohasini o'zgartirishi va ehtimol, butunlay transformatsiya qilishi mumkin bo'lgan vosita. "Sun'iy intellekt" atamasi bu real va virtual hayotda inson tomonidan belgilangan maqsadlar uchun bashorat qilish, tavsiya berish va qaror qabul qilish xususiyatlariga ega "mashina-inson" tizimidir[17]. "Mashina-inson" tizimi deganda, shunday tizimni tushunishimiz kerakki, unda inson va texnika elementlarining afzal jihatlari mujassamlashtiriladi[18].

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, sun'iy intellekt – bu aqliy (intellektual) xulq-atvorni namoyon qilishga (modellashtirishga) qaratilgan turli xil texnologiyalarni o'zida mujassamlashtirgan mustaqil kompyuter tizimidir, degan xulosaga kelish mumkin. Bugungi kunda sun'iy intellekt turli xil prizmalar orqali, xususan, huquqda ham chuqur o'rganilmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, sun'iy intellektni har tomonlama o'rganish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Sababi biron fan yutug'i yaratilibdiki, undan nafaqat ijobiy, balki salbiy yo'llarda ham foydalaniladi. Yuridik fanlar doktori S. Bozarov o'z tadqiqotlarida sun'iy intellekt tomonidan keltirilgan zarar uchun javobgarlik masalasiga to'xtalib, uning yaratilishi va faoliyat yuritishi insonga bog'liq ekanligi sababli oqibatiga ham inson javobgar bo'lishi kerak degan fikrni ilgari suradi[2; 4-b]. Texnologik taraqqiyot rivojlanishining hozirgi holatini hisobga olsak, yaqin kelajakda sun'iy intellekt imkoniyatlari sezilarli darajada oshishi va murakkablashishi mumkin. Xususan, bu borada professor N.Bostromning ta'kidlashicha, 2040-yilga kelib sun'iy intellekt va insonning fikrlash jarayonlaridagi o'xshashlik taxminan 50 foizga teng bo'ladi, 2075-yilda esa, ularning fikrlash jarayonlarini ajratib bo'lmaydi, o'xshashlik 95 foizga yetadi[3]. Biroq hozirgi texnologik rivojlanish sur'atlari bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Shuning uchun ham N.Bostrom va A.Sandberglar yangi tadqiqotlarida ushbu prognoz ko'rsatgichlarini oldinga tomon o'zgartirishgan[4; 5–6-b]. Bu esa sun'iy intellektni nafaqat jinoyat sodir etish predmeti sifatida, jinoyat subyekti sifatida sun'iy ong etikasi va javobgarlik muammolarini hal etish masalasini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Sun'iy intellektni bajaradigan vazifa va funksiyalariga qarab shartli ravishda uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. Maxsus sun'iy intellekt. Bu toifa SI tor doirada amallar bajaradi. Bunda SI aniq bir vazifalarni bajarishga, masalan nutqni aniqlash, kasalliklar diagnostikasi, o'yin o'ynash kabi vazifalarga ixtisoslashadi. Bunda SI ixtisoslashuvidan tashqari bo'lgan funksiya va vazifalarni bajara olmaydi. Bunga misol qilib, Siri, IBM Watson, ChatGPT, DeepSeek va hokazo.

2. Universal sun'iy intellekt. Bu toifa SI har qanday amallarni bajara oladi. Bunda SI aniq bir vazifalarni bajarishdan tashqari, o'z-o'zini o'rgatish orqali qo'shimcha vazifalarni ham bajaradi. Bu turdagi SI odamga taqlid qila oladi. Ya'ni vaziyatga qarab moslashadi, nou-xauni qabul qilib, ularni tahlil qiladi, qarorlar qabul qila oladi. Hozirda mazkur turdagi SI mavjud emas. Biroq olimlar va OpenAI, DeepMind, IBM Watson kabi yirik kompaniyalar mazkur yo'nalishda ishlashmoqda.
3. Mashinaviy sun'iy intellekt. Bu toifa SI tizim ma'lumotlariga asoslanib ishlaydi. Ya'ni uning dasturiy ta'minotiga kiritilgan ma'lumotlarga tayanib, shu ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qiladi. Bunga misol TensorFlow, Google Cloud AI, RapidMiner va hokazo.

Bizning fikrimizcha, sun'iy intellektni nafaqat jinoyat sodir etish predmeti sifatida balki, jinoyat subyekti sifatida ham tahlil qilish masalasini taqozo etadi. Yuridik fanlar doktori, professor M.X. Rustambayev "jinoyat subyekti jinoyat tarkibining ajralmas elementi hisoblanadi"[7; 233-b] deydi va bu fikr umum qabul qilingan ta'rif hisoblanadi. Shuningdek, olim "Jinoyat subyekti – jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan va ushbu qonunda belgilangan yoshga yetgan aqli raso jismoniy shaxsdir"[7; 233-b] deya ta'rif beradi. Yuridik fanlar nomzodi, dotsent M. Usmonaliyevning fikricha, "jinoyatning subyekti — ijtimoiy xavfli qilmish sodir qilgan, qonunga muvofiq ravishda jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan shaxsdir"[8; 187–189-b]. Mazkur ta'riflar fundamental hamda jinoyat qonunchiligida aks ettirilgan norma va qarashlarga muvofiq berilgan hisoblanadi. Yangi ijtimoiy munosabatlar, ochiq keyslar bizga mazkur ta'rif va qonunchilik normalariga o'zgartirish kiritishni taqozo etadi.

Sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etishimiz mumkinligiga asos sifatida unga berilgan ta'riflar va uning xususiyatlaridan kelib chiqishimiz mumkin.

1. Mustaqil qarorlar qabul qilish xususiyati;
2. Insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi;
3. Real hayotga ta'sir o'tkazish;
4. Mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beruvchi.

Mazkur sifatlar sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish imkonini beradi. Sababi unda mustaqillik va o'z xatti-harakatini intellektual jihatdan mustaqil sodir etish xususiyatlari mavjud. Sun'iy intellekt bilan sodir bo'lgan bir qancha ochiq keyslar mavjud bo'lib, ijtimoiy xavfli qilmishda jinoyat subyekti mavjud emasligi, yoki sun'iy intellektni javobgarlikka tortish masalasi ochiqligi uchun boshqa shaxslar javobgar qilingan. Misol tariqasida, AQShda sun'iy intellekt tomonidan sodir etilgan jiddiy xato insonning o'limiga sababchi bo'lgan. Tibbiyotga mo'ljallangan sun'iy intellekt o'rnatilgan texnologiya bolaga noto'g'ri tashxis qo'yishi uning o'limiga sabab bo'lgan[6; 105–114-b]. Yana bir misol AQShda 2018-yilda Uber kompaniyasining sun'iy intellektga asoslangan haydovchisiz avtomobili ishtirokida yo'l transport hodisasi natijasida odam o'lishi. Vaziyatda sun'iy intellekt orqali boshqarilib kelinayotgan 63 km/soat tezlikda harakatlanayotgan avtotransport vositasi yo'ldan o'tayotgan shaxsni identifikatsiya qilishda yanglishib urib yuborgan va shaxsning o'limiga sababchi bo'lgan. Mazkur holatda javobgarlik masalasi ochiq qolgan, dastlab mashina ichida o'tirgan Uber kompaniyasi xodimini nazoratni to'g'ri o'rnatmaganligi uchun javobgarlik masalasini

unga nisbatan ko'rishgan, biroq keyingi instantsiya sudlari tomonidan, kompaniya xodimi oqlangan, marhumning yaqinlariga kompensatsiya to'lab berilgan, biroq javobgar noma'lumligicha qolgan[19]. Bunday misollar yaqin o'tmishda ko'paygani va yaqin kelajakda yanada ko'payishi aniq. Biz mazkur salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi harakatlarni (harakatsizlik) avvaldan bashorat qilish yo'li bilan umume'tirof etilgan obyektlarni muhofaza qilish choralarini ko'rishimiz kerak.

Yuqorida sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish masalasi bo'yicha asoslar keltirdik. Biroq bugungi kunda sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish biroz erta deb hisoblaymiz. Bunga asos sifatida quyidagi argumentlarni keltirishimiz lozim bo'ladi:

1. Irodaviylik va anglab yetish xususiyati to'liq mavjud emasligi;
2. Inson tomonidan yaratilganligi, uning boshqaruvi nisbatan inson qo'lidaligi;
3. Tartibga solish, javobgarlik, shuningdek jazo tayinlash masalasida bo'shliq.
4. Jinoyat subyekti sifatida e'tirof etishgandan so'ng, boshqa huquq sohalarda ham subyekt sifatida e'tirof etish masalasi.

Mazkur asosiy omillar bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan bahs va munozaralarga sabab bo'lmoqda. Yuridik fanlar doktori S. Bozarov, raqamli "ong" mutlaqo ratsional bo'lib, u hissiy-emotsional jihatdan mahrumligi, robotlar oxir-oqibat o'z-o'zini mustaqil anglab yetishini tan olsak ham, u baribir insonlarnikidek bo'lmaydi. Robotning his-tuyg'ulari – bu shunchaki raqamli ko'nikmadir degan fikrni ilgari suradi[2; 4–5-b]. Sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etishimiz, uni boshqa huquq tarmoqlarida ham huquq subyekti sifatida e'tirof etishimizga sabab bo'ladi. Sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish, jinoyat qonunchiligiga jinoyat subyekti sifatida kiritish chuqur va keng qamrovli tahlilni talab etadi. Ammo mazkur masalaning dolzarbligi sun'iy intellektning ko'p sohalarga kirib kelishi, mustaqil qarorlar qabul qilishi sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida e'tirof etilishiga olib keladi degan asosli taxminlarga kelamiz. Sun'iy intellektni jinoyat subyekti deb e'tirof etish masalasi dolzarbligi ortishi natijasida Jinoyat kodeksi IV bobi javobgarlikka tortilishi lozim bo'lgan shaxslar safiga sun'iy intellektni jinoyat subyekti sifatida quyidagicha "Ushbu Kodeks bilan muhofaza qilinuvchi obyektlarga intellektual mustaqil ravishda tajovuz qiluvchi sun'iy intellekt jinoyat sodir etishda aybdor deb topilishi mumkin" belgilanishi lozim. Bunda asosiy urg'u sun'iy intellektning mustaqil harakat yoki harakatsizligi tufayli jinoyat qonunchiligi muhofaza qiluvchi obyektlarga tajovuziga va oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishga qaralishi lozim. Shuningdek, Jinoyat kodeksida jazo tizimiga asosiy va qo'shimcha jazo sifatida "funktional cheklash", "majburiy qayta ishlab chiqarish", "texnik jihatdan yo'q qilish" kabi jazolarni qo'shish orqali javobgarlik masalasini hal etish. Bunda funksional cheklash deganda, sun'iy intellektga nisbatan ma'lum funksiyalarini cheklovchi maxsus to'siq qo'yishni tushunish lozim. Majburiy qayta ishlab chiqarish deganda, ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etgan sun'iy intellektning funksiyalarini to'liq yoki qisman qayta ishlash orqali bartaraf etish tushunilishi lozim. Texnik jihatdan yo'q qilish deganda, jinoyat sodir qilgan sun'iy intellektni to'laqonli texnik jihatdan yo'q qilish tushunilmog'i lozim. Shuningdek, sun'iy intellektdan jinoyat quroli sifatida foydalanish javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat deya e'tirof etilishi kerak. Bunga sabab sun'iy intellekt mazkur qilmishni o'zida mustaqil o'rganib, mustaqil ravishda boshqa jinoyatlarni ham sodir etishidir.

Xulosalar. Bugungi globallashuv va texnologik inqiroz davrida sun'iy intellekt, uni yaratish, u orqali sodir etiladigan ijtimoiy xavfli qilmishlarni normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish kerakligini ko'rsatadi. Jumladan, sun'iy intellektni har tomonlama tahlil qilish orqali uni jinoyiy-huquqiy munosabatlardagi o'rni va rolini belgilashni anglatadi. Sun'iy intellekt bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish uchun biz O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining XX¹ bobi, Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga, hamda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi XI bobi, Transportdagi, yo'l xo'jaligi va aloqa sohalaridagi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka qo'shimcha, yangi ma'muriy huquqbuzarlik va jinoyatni qo'shish kerak va uni quyidagicha nomlash lozim:

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga quyidagi normani kiritish kerak:

155⁶-modda. G'arazli niyatda yoki qonun bilan qo'riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo'luvchi sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish

G'arazli niyatda yoki qonun bilan qo'riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo'luvchi sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish orqali ko'p bo'lmagan miqdordagi zarar yoki yengil tan jarohati yetishiga olib kelsa –

Sun'iy intellekt texnologiyasi, shu jumladan uni ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etishga qaratilgan vositalarni texnik jihatdan yo'q qilish yoki majburiy qayta ishlab chiqarish, shuningdek yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

155⁷-modda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qayta dasturlashtirish.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini g'arazli yoki qonun bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga qarshi qayta dasturlashtirish orqali ko'p bo'lmagan miqdordagi zarar yoki yengil tan jarohati yetishiga olib kelsa –

Sun'iy intellekt texnologiyasini texnik jihatdan yo'q qilish yoki majburiy qayta ishlab chiqarish, shuningdek yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Jinoyat kodeksiga quyidagi normani kiritish kerak:

278¹⁰-modda. G'arazli niyatda yoki qonun bilan qo'riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo'luvchi sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish

G'arazli niyatda yoki qonun bilan qo'riqlangan munosabatlarga qarshi tajovuzda namoyon bo'luvchi sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, foydalanish, o'tkazish va ular bilan boshqa harakatlarni sodir etish uchun ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin sodir etilgan bo'lsa yoki ancha miqdorda zarar yetkazilishiga yoxud badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) juda ko'p miqdorda;

b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- g) xizmat yoki mansab vakolatidan foydalangan holda;
- d) badanga og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odam o'limiga;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —
besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odamlar o'limiga;
- v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —
etti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

278¹⁰-modda. Sun'iy intellekt texnologiyalarini qayta dasturlashtirish.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini g'arazli yoki qonun bilan qo'riqlanadigan munosabatlarga qarshi qasddan qayta dasturlashtirish ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin yoki ancha miqdorda zarar yetkazilishiga yoxud badanga o'rtacha og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa –

bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) juda ko'p miqdorda;
- b) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;
- v) takroran yoki xavfli retsivist tomonidan;
- g) xizmat yoki mansab vakolatidan foydalangan holda;
- d) badanga og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lsa, —
uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odam o'limiga;
- b) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, —
besh yildan yetti yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

- a) odamlar o'limiga;
- v) boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lsa, —
yetti yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 56-moddasi, ya'ni jazoni og'irlashtiruvchi holatlarga qo'shimcha "**p) sun'iy intellekt texnologiyalaridan g'arazli niyatlarda, jinoyat quroli sifatida foydalangan holda**" tarzidagi bandni kiritish kerak. Bu hozirgi kunda ko'payib borayotgan sun'iy intellekt orqali sodir etilayotgan qilmishlar va ularni oldini olishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bozarov S.S. Sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish doirasidagi axloqiy va huquqiy tusdagi masalalar. Yurist axborotnomasi 5-son, 2-jild. Toshkent 2022. 84 – 89-betlar.

2. Bozarov S.S. Sun'iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalari. Ilmiy maqola. 15 bet. // <https://cdn.uza.uz/2022/07/05/05/02/03h8FqhXBuvCIYHXM6MJBeh509lkZFPo.pdf>
3. Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. — Oxford: Oxford Univ. Press, 2014. – 352 bet.
4. Bostrom N. The superintelligent will: motivation and instrumental rationality in advanced artificial agents. Future of Humanity Institute Faculty of Philosophy & Oxford Martin School Oxford University. [Minds and Machines, Vol. 22, Iss. 2, May 2012]. – 16 bet.
5. Герасимов А.П. Правовые формы осуществления государственной власти. Yuridik fanlar nomzodligi uchun yozilgan dissertatsiya. Krasnodar 2004-yil. 182 bet.
6. Кашкин С.Ю., Тищенко С. А., Алтухов А. В. Правовое регулирование применения искусственного интеллекта для борьбы с распространением COVID-19: проблемы и перспективы с учетом мирового опыта // Lex Russica. – 2020. – № 7. – С. 105–114.
7. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta'limot. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 442 bet.
8. Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. Олий ўқув юртлари учун дарслик. — Т., «Янги аср авлоди», 2005, 662 бет.
9. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111453>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/7158604>
11. <https://www.techinsider.ru/persons/biography/alfred-nobel/>.
12. <https://smartnews.ru/articles/10509.html>.
13. <https://ourworldindata.org/burden-of-disease>.
14. https://www.business-standard.com/article/technology/mcafee-report-says-cybercrime-to-cost-world-economy-over-1-trillion-120120700249_1.html.
15. <https://ictnews.uz/uz/09/03/2018/ai-2-2/>
16. <https://yuz.uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi>
17. <https://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/6216/text>
18. <https://perricone-md.ru/articles/chto-takoe-cheloveko-mashinnaya-sistema>
19. <https://www.bbc.com/news/technology-54175359>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).